

**FRANSUZ REALIZMI PROZASIDA ROMAN JANRINING TUTGAN
O`RNI VA USLUBIY TAMOYILLARI**

Nafisa Mirzabekova Abdumalik qizi

Toshkentdagi Xalqaro Vestminster Universiteti akademik litseyi

Fransuz tili o`qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada fransuz roman janrining kelib chiqishi va rivojlanishi, roman uslubining o`ziga xos xususiyatlarini o`rganishni maqsad qilib olgan ekanmiz, xususan bu davrning yirik yozuvchisi Onore de Balzakning asarlarini tadqiqot obyekti tarzida tanladik. Mavzuning dolzarbligi sababi Balzakning qator asarlarini tahlil qilish borasida Fransiyada XVIII-XIX asrlardagi turmush tarzi, xalqning madaniy va ma`naviy merosi, insonlar orasidagi o`zaro munosabatlar, oila hamda turmush tushunchasi va qadr-qimmat, o`sha davr tuzumining xalq hayotiga bo`lgan ta`sirini o`rganishdir.

**Kalit so`zlar :** roman, janr, adabiyot, proza, filologiya, realizm, ma`naviyat, obraz.

Abstract:

In this article, we aimed to study the origin and development of the French novel genre, the specific features of the novel style, and in particular, we chose the works of the great writer of this period, Honore de Balzac, as a research object. The reason for the topicality of the topic is the analysis of a number of Balzac`s works, the way of life in France in the 18th-19th centuries, the cultural and spiritual heritage of the people, the mutual relations between people, the concept and value of family and life, the influence of the system of that time on the life of the people is to study.

Key words: novel, genre, literature, prose, philology, realism, spirituality, character.

Kirish

«Inson ma`naviyatining, ruhiyatining yuksalishida adabiyot muhim o`rin tutadi. Boshqa jonzotlardan farqli o`laroq, inson nafaqat moddiy ozuqaga, balki manaviy, ruhiy oziqqa ham muhtojdir. Biz iste`mol qiladigan oziq-ovqatlar

jismimiz ehtiyojlarini qondirib, uni doimiy quvvatlantirib turadi. Ma'naviy oziqlanish esa ruhiy boyitib, ma'naviy qashshoqlashishdan asraydi»¹

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Biz dunyodagi taraqqiy topgan davlatlar safiga kirishni maqsad qilarkanmiz, avvalambor, olimlarimiz kam o'rganilgan, dolzarb muammolarni tadqiq qilishga kirishishi, ularning ilmi, obro'si olamda mashhur bo'lishi, jahon ilm-fanning yuksak mezonlariga mos bo'lishi darkor»². Darvoqe, filologiya fani sohasida olib borilayotgan fundamental tadqiqotlar mundarijasida G'arb adabiyoti tarixida muhim o'rin tutgan nomdor adiblar ijodini o'rganish, asarlarni lingvopoetik asnoda tahlil qilish ham alohida o'rin tutadi.

Yevropa adabiyotining realizm asoschilaridan biri hisoblangan Onore de Balzakning buyuk asari hisoblanmish «Inson komediyasi» hamda uning turkumiga kiruvchi «Gorio ota» romanini o'rganish va shu orqali XIX asrda asos solingan realizm janri haqida ma'lumotga ega bo'lish.

Buyuk yozuvchi Onore de Balzakning «Inson komediyasi» epopeyasi juda katta mahorat bilan yozilgan bo'lib, ko'pchilikning qalbidan joy olgan hamda o'z o'quvchilarini topgan. Bu asar shunchalik haqqoniy va hayotga yaqinki, bu borada rus publitsist va adabiyot tanqidchisi, mashhur V.V.Vorovskiyning quyidagi fikri o'rinlidir: «Настоящее писательство — как любовь. Его нельзя укрыть, когда оно волнует душу и толкает к перу; его нельзя вызвать искусственно, в нем нельзя фальшивить без того, чтобы вдумчивый читатель не почувствовал этой фальши и искусственности.»³ Ya'ni, haqiqiy yozuvchilik-bu bamisoli sevish kabidir. Uni hech narsa bilan berkitib bo'lmaydi, u qalblarni jo'shqinlantiradi hamda qalam olishga chorlaydi; uni shunchaki his etib bo'lmaydi, uni soxtalashtirib bo'lmaydi, chunki har qanday o'quvchi undagi soxtalik va sun'iylikni sezadi.

«Inson Komediyasi» turkumiga kiruvchi birinchi roman «Gorio ota» asari har bir personajning ichki kechinmalari, o'y-fikrlari va ayniqsa qaysi yo'lni tanlash, ya'ni tanlov borasidagi fikr va dunyoqarashlarini to'liq bayon etish bilan qing'ir

¹ Dadaboyev S.- La litterature du XX siècle. Namangan—2011. 12-b.

² **Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich.** Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

³ **Воровский В.** Литературно-критические статьи — М.: Гослитиздат, 1948. — 255 с.: портр.

ishing oxiri “voy” bo`lishini hamda sodda xalqning ohirgi ekyusini ham uzoqdagi jigargo`shasi uchun ayamaydigan himmat egalari ekanligini ko`rsatib beradi.

Bosh qahramon Ejen Rastinyak(fr. Eugène de Rastignac)- asardagi markaziy obrazlardan biri hisablanib, nafaqat « Gorio ota » romanida, balki Balzakning « Inson komediyasi » epopeyasiga kiruvchi boshqa qator asarlarda ham uchraydi. Yosh provinsial, asta-sekin idealistik illuziyalarni yo`qotuvchi hamda pul va mol-dunyo uchun parijlik yuqori toifa insonlarga intiluvchi yigit.

Rastinyak- baron va baronessa de Rastinyakning to`ng`ich o`g`li bo`lib, 1797 yilda Sharanta departamentidagi Rastinyaklar saroyida tug`ilgan.1819-yilda Parijga huquq fanini o`qish uchun kelgan yigit boshpana topish maqsadida “la pension de Vauquer” uyiga keladi.

«Voke » pansioni yiliga arzimagan to`lov evaziga boshpanasiz qolgan bechoralarga xona ijaraga berar, ularni ovqat va issiqlik bilan ta`minlardi. Ushbu pansion eridan beva qolgan Voke xonimning shaxsiy mulki hisoblanib, soliqlarni to`lashga qiynalayotgani sababli o`z uyinin pansion qilishga qaror qiladi. Uyni amallab bor bisotidagi mebellar bilan jihozlab, xohlovchilarni qabul qila boshlaydi. Voke xonimning yana bir o`ziga xos jihati borki, u o`z pansion a`zolarini tanlab oladi: tashqi ko`rinishiga, muomalasiga, nochor bo`lishdan oldingi tarixiga albatta qiziqmay qo`ymaydi.

Voke pansioni Parijning Neuve-Sainte-Genievieve ko`chasida joylashganini quyidagi parchadan bilsa ham bo`ladi: “Стоит он в нижней части улицы Нев-Сент-Женевьев, где местность, снижаясь к Арбалетной улице, образует такой крутой и неудобный спуск, что конные повозки тут проезжают очень редко”⁴

Tabiatan sodda, sofdil, ochiqko`ngil va beg`ubor janublik yigitcha Parijga katta orzular bilan keladi.Ejenning aynan janublik ekanligiga urg`u bergan Balzak uni quidagicha ta`riflaydi: “Но он был южанин, до мозга костей южанин, поэтому наделе его решениям предстояло испытать те колебания, какие возникают у молодого человека, как только он очутиться в открытом море, не зная, ни к какому берегу направить свои силы...”⁵

Ya`ni, bu bilan muallif aytmoqchiki, Fransiya aholisi o`rtasida janublik va shimolliklar farq qilar ekan. Aynan janubliklar, qiziqqonligi, mehnatkashligi, o`z maqsadi sari tinimsiz intilishi ko`rsatilgan.

⁴ Бальзак О.де “Отец Горио» --М.: Художественная литература, 1981—стр.34.

⁵ Бальзак О.де “Отец Горио» --М.: Художественная литература, 1981—стр.54

Gorio ota bilan yaqindan tanishgach, ularning ikki go`zal va "boyvaccha" qizlarini ko`rgach va bilgach, dunyoning naqadar shafvqatsiz, insonlarning esa mol-dunyo hamda pul uchun barcha narsaga tayyorligini ko`rgan Ejen endi boyishning boshqa, qing`ir yo`lini tanlashga qaror qiladi.

Nima uchun keladi-yu, nimalarni boshlab yuradi?

Har bir o`quvchining qalbida ushbu savol tug`ilmasdan iloji yo`q. Mehr, jonkuyarlik, mehnatkashlik, shijoat hamda samimiyat o`rnini Ejenning qalbida sovuqqonlik egallaydi. Ammo, nega? Nima uchun yosh qalbning umidlarini so`ndirishdi?

Avvalambor, u qarindoshi hisoblanmish vikontessa de Boseanning huzuriga borganida, qalbida bir umid uchquni bor edi.

Bosean xonim bian bo`lgan uchrashuvdan so`ng Ejen o`zi uchun muqaddas bo`lgan narsalar, ya`ni, otaning bolalari uchun qora terga botib mehnat qilishi, onaning qishki bir dona ko`ylakni asrab-avaylab kiyishi, singillarning esa topgan narsasini kiyib yurishi, o`zining nochor ahvoli poytaxtdagi hashamatli hayottan qanchalar farq qilishini ko`rgan yigit o`zini dastavval yo`qotib qo`yadi. Bu boyliklar, ko`zni quvnatuvchi hashamdor uylar yosh yigitning ham qalbini o`g`iraydi. U ham endi shu insonlar kabi baxtga ega bo`lishni istaydi, bu baxt esa o`sha hashamdor uylarning devori orqasida edi. O`sha yerda hamma narsa muhayyo edi: hayot, mansab, oltin, shon-shuhrat, e`tirof. U yetarlicha shuhratpast va aqilli edi, uning o`zini sinab ko`rish uchun shijoati yetarli edi. Endi faqatgina bir muammo qolgandi: mablag`. Ejenning 3 oy uchun ishlatiladigan 130 frankigina qolgan, bu esa omad sari tashlanadigan birinchi qadamni qo`yish uchun juda kam edi. Mablag`dan tashqari, ko`rkam kiyim-bosh, jozibador kostyumlar ham kerak edi. Ahir u zodagonlarning saroyiga nochor holda borolmas edi

Ejen zabt etmoqchi bo`lgan dunyo unda bir vaqtning o`zida ham maftunkor ham jirkanchli bo`lib tuyuladi. Bechora yigitning toza qalbi taqdirning Gorio otaga qilgan shafqatsizligiga nisbatan alamga to`ladi: u bu jamiyatga zarba berishga, Gorio ota uchun alamini olishga tayyor edi. Undagi nafrat va hamdardlik uning qalbida bu beshafqat dunyo ustidan g`alaba qozonishiga ishontiradi, ammo ayni paytda u axloqsiz xulosaga keladi- bu maqsadga erishishda har qanday vositalar qo`l keladi. O`sha paytda Ejen bu yo`l uni oliyjanob hislardan mahrum etishini hatto tasavvur ham qilmagan edi.

Balzakning ushbu qahramoni psixologik tarafdin tez o`zgarmaydi. Avval u baxtsiz Gorio otani himoya qiladi, umrboqiy sevgini orzu qiladi hamda eng

rohatbaxsh hissiyotlar bilan to'la bo'ladi. Ammo oltinga bo'lgan nafs uni butun o'y-hayolini egallab oladi hamda uning barcha orzularidan ustun keladi: madmuazel Tayferning o'zidan ko'ra uning boyligi uni qiziqtirib qo'yadi va unga ega chiqmoqchi ham bo'ladi. O'zining haqqoniy rejalarini ustun qo'yib, u Votrenning taklifini rad etadi: qochoq jinoyatchi unga Tayferning ukasini duelda o'ldirib, butun boylikka ega chiqishni va shu yo'l orqali bitmas-tuganmas boylikka ega bo'lishni tavsiya etadi. Ammo Ejen bu taklifda insoniylikka qarshi hech qanday yomon tarafni ko'rmaydi. Aslida uni shubxa-gumonlar bezovta qiladi va ularni hal etish maqsadida u o'zining do'stidan, shifokor-talabadan maslahat so'rab murojaat qiladi, Russoning quyidagi parchasini o'qigan yoki o'qimaganligini: «Помнишь то место, где он спрашивает, как бы его читатель поступил, если бы мог, невыезжая из Парижа, одним усилием воли убить в Китае какого-нибудь старого мандарина и благодаря этому сделаться богатым?»⁶ Byanshon bilmasligini aytadi. Shunda Rastinyak do'stidan uning shu aytgan parchasi haqida o'ylab ko'rishini so'raydi va Votren taklif qilgan qotillikni oqlash maqsadida asoslar keltiradi: «У меня две сестры — два ангела красоты и непорочности, и я хочу, чтобы они были счастливы... В жизни бывают такие обстоятельства, когда необходимо вести крупную игру...»⁷ ya'ni, meni ikki singlim bor- ikki qora ko'zlarim, meni farishtalarim, va men ular baxtli bo'lishlarini juda istayman... Hayotda shunaqa paytlar bo'ladiki, juda makkor o'yin o'ynashga to'g'ri keladi... deydi. Lekin hatto Byanshon ham o'z mulohazalarida beixtiyor Votrenning fikrini tasdiqlaydi, ya'ni jinoyatchi va “ziyoli” insonning intilishlari orasida hech qanday farq yo'q: «Ты ставишь вопрос, который возникает перед каждым, кто вступает в жизнь, и этот гордиев узел хочешь рассечь мечом. Для этого... надо быть Александром, в противном случае угодишь на каторгу».⁸

Rastinyak personaji orqali Balzak Parij jamiyatining o'sha paytdagi “ahvoli”ni ta'riflaydi. Ya'ni, Provinsiya- chet shahar va qishloqlardan kelgan oddiy va sodda kishilarning taqdiri faqat ularning puli va mol-dunyosiga qarab belgilanadi. Umuman inson qadr-qimmat, uning xurmat-izzati faqatgina uning hisobidagi franklari va egalik qiladigan yerlarining hajmiga qarab o'lchanadigan bu jamiyat boshi berk ko'chaga kirib qolgan va bu holda boshqa yashab bo'lmas edi. Balzak tasvirlagan bu jamiyat takabburlarining o'zini tutishi-yu boshqalarga

⁶О. де Бальзак “Отец Горио” --М.: Художественная литература, 1981—стр.110

⁷О. де Бальзак “Отец Горио” --М.: Художественная литература, 1981—стр.165

⁸О. де Бальзак “Отец Горио” --М.: Художественная литература, 1981—стр.180

qilgan muomalasi, o'z maqsadiga erishish maqsadida hech narsadan toymasligi, hattoki to'shakka mixlanib hayot bilan vidolashayotgan otasi ham bir chaqaga arzimaydigan bo'lib qolishi har bir o'quvchini g'azabga keltirishi hech gap emas.

Ejening Gorio otaning qizlariga nisbatan bo'lgan nafrati ularning asl yuzini ko'rganida, ya'ni otasining dafn marosimiga kelish uyoqda tursin, hatto bir frank ham jo'natmaganida kuchayadi. Shunda u farzandlarning naqadar bemehr va xudbin bo'lishiga ham, insonlarning orasini buzadigan ham, qon-qarindoshlik rishtalariga putur yetkazadigan ham pul ekanini tushunib yetadi va o'z qarori va fikrlaridan nafratlanib ketadi.

Shunday qilib, Rastinyakning qalbida insonlarning munosabatlari haqidagi xom-hayollari puchga chiqadi. Gorio otaning qayg'uli taqdiri esa uning qalbida kechayotgan baxsga ohirgi nuqtani qo'yadi. Per-Lashez mozorining cho'qqisidan ko'rinib turadigan Parij esa endi uning ham dunyosiga aylanadi va bundan keyin u bu shaharni zabt etishga kirishadi. Rastinyak endi bu dunya aqadar beshafqat va rahmsiz ekanligini, bu dunyoda hamma narsa, hatto qon-qarindoshlik aloqalari ham sotilishi va sotib olinishini, bu dunyoda faqatgina eng muqaddas chegaralarni bosib o'tgan kishigina g'alaba qozonishini biladi. Va Ejen bu dunyoga qarshi chiqishni ma'qul ko'rди. Buni romanning oxirida Parijga qarata aytgan so'zlaridan bilib olsa bo'ladi: «À nous deux!»⁹

Xulosa

Ushbu kurs ishida biz Rastinyakning obrazi hamda uning Onore de Balzakning «Gorio ota» romani kompozitsiyasi va syujetidagi rolini analiz qildik. Yevropa adabiyotida Balak realizm janrining asoschisi deb hisoblanadi, chunki u o'sha davrda urf bo'lgan avantyura va tarixiy janrdagi romanlarni yozishdan ko'ra, uning o'ylashi bo'yicha mukammal bo'lmagan burjuaziya jamiyatini ta'riflagan, hamda ushbu jamiyatni zabt etish uchun qancha narsalardan voz kechish kerakligini bayon etgan.

Balzakning «Gorio ota» romani o'z zamondosh tanqidchilari hamda undan keying davomchilari tomonidan a'lo baholangan. Ushbu asarning buyukligi nafaqat uning noodatiy syujetida, balki romanning kompozitsion tarzda tuzilgani, ya'ni asosiy syujet liniyasi birdaniga bir necha asarlarga tegishli ekanligi, personajlarning ketma-ket Balakning boshqa asarlarida ham uchrashi

⁹— «А теперь — кто победит: я или ты!»⁹.

hamda ularning barchasi “Inson komediyasi” nomi ostidagi epopeyada birlashganidir.

Shu bilan bir qatorda Balzak nochorlikdan umidsizlangan, insonlarning sovuqqonligi hamda shafqatsizligidan nafratlangan yigitning Parij burjua jamiyati ustidan qozongan g'alabasini, shuningdek o'z davrining jamiyatidagi inqirozli ahvoli eng chekka qishloqlarda yashaydigan bechora insonlarga ham ozor yetkazayotganini ko'rsatgan.

Rastinyak obrazi asosiy personaj bo'lmasa ham, uning taqdiri qolgan barcha personajlarnikidan ko'proq qiziqarlidir. Har bir o'quvchi uning Parijga qarata aytilgan ohirgi so'zlaridan keyingi taqdirini bilishga qiziqadi va o'ylashimcha, bu asarning mavqeini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Моруа А. ндре. От Монтеня до Арагона. – М.: Радуга, 1983.
2. Бальзак О. де “Отец Горио” --М.: Художественная литература, 1981—стр.85
3. Варламова Е.А. Преломление шекспировской традиции в творчестве Бальзака («Отец Горио» и «Король Лир»): автореф.дис...канд.филол.наук. – Саратов, 2003.
4. Елизарова М.Е. и др. История зарубежной литературы XIX века. – М.: Просвещение, 1972.
5. Затонский Д.В. Бальзак // История всемирной литературы. – Т.6. 0 М., 1989. – с. 195-206.
6. Кипренский А. Эжен Растиньяк // Смена. – №280 [Электронный источник] URL: <http://smena-online.ru/node/37869/print> (дата обращения: 09.12.2013)
7. Критический реализм в европейской литературе XIX веке. – Уфимский гос. авиац. технич. ун-т., 2009.
8. Кучборская Е.Б. Бальзак и время // Эмиль Золя – литературный критик: К истории реалистического романа во Франции XIX века. – М.: Изд-во Московского университета, 1978.